

QURILISH TERMINLARINI AMALIYOTDA QO'LLANILISHI

Sag'dullayev Ma'ruf Ilhom o'g'li

*Samarqand Davlat veterinariya
meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Toshkent
filialining assistenti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy tillardan o'zbek tiliga kirib kelgan qurilish va muhandislikka oid atama va terminlarning amaliyotda qo'llanilishi, unga mosmuqobillarni topish muommolari va ularning yechimlari milliy qadriyatlarimiz bilan uzviy bog'liqligi haqida fikr mulohazalar misollar orqali yoritiladi.

Kalit so'zlar: qurilish, terminlar, terminologiya, muhandis, konstruksiya, oval, arka, me'morchilik, restovratsiya, atamalar, leksikografiya, arxitektura.

Hozirgi sharoitda qurilish terminologiyasini o'rganish dolzarb masalalardan biridir. Chunki qurilish terminologiyasidagi so'nggi atama hosil bo'lish jarayonlari va yangi atamalar majmuasi lug'atshunos olimlar tomonidan yetarlicha tahlil qilinmagan, qayta ishlanmagan va faoliyat sohasi doirasida o'rganilmagan. Ma'lumki, arxitektura va qurilishning rivojlanish tarixi bir necha asrlarni o'z ichiga oladi. Binobarin, qurilish terminologiyasi jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlari quruvchilarning kasbiy lug'ati shaklida shakllangan va uzoq vaqt davomida rivojlanib kelayotgan o'ziga xos leksik tizimdir.

Zamonaviy qurilish terminologiyasida vaqt, shakllanish manbalari va ma'lumotlar tamoyillari bo'yicha har xil xarakterdagi atamalarni topish mumkin. Bu esa mazkur sohani keng tarixiy asosda o'rganish, uning shakllanishi va tuzilishi xususiyatlarini aniqlashga nazariy va amaliy ehtiyoj borligini ko'rsatadi. Ko'pgina qurilish atamalari umumiy leksikografiya qoidalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, umumiy tilda faol qo'llaniladi. Shuning uchun ham qurilish terminologiyasida kuzatilayotgan jonli o'zgarishlarni aniqlash imkonini beruvchi ilmiy izlanishlar bu sohada dolzarb va istiqbolli vazifa sifatida maydonga chiqdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda qurilish ishlari jadal rivojlanmoqda. Shu bilan birga, o'zbek tiliga xorijiy tillardan qurilish, muhandislik va arxitektura sohalariga oid yangi atama va iboralar kirib kelmoqda. Bunday atamalarning ba'zan tilimizda muqobil variantini qo'llashimiz mumkin, ba'zan esa muqobili bo'lmagan atamaning o'zidan foydalanishga to'g'ri keladi. Shunday ekan, bunday muammolarning yechimini topishda jahon sivilizatsiyasi va jahon axborot resurslaridan keng foydalanish dolzarb vazifalardan biridir.

Respublikamizda davlat tilini ko'proq rivojlantirish va takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda, haligacha qurilish sohasiga oid terminlarni rus tilida qo'llanilishi hamda o'quv muassasalarimizda ham rus tilida

berilishi kuzatildi. Bu esa o'z navbatida bo'lajak mutaxassislarimizga qiyinchiliklar tug'dirib kelmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, biz tilimizning rivoji uchun juda ko'p sohalarda ko'plab islohatlar o'tkazishimiz kerak. Bunga misol tariqasida ingliz tilidagi "oboy" so'zi bizga rus tili orqali "обое" bo'lib kirib kelgan va bu so'zning o'zbekcha muqobili "gulqog'oz" bo'lsa ham qurilish sohasida oboy deyishni afzal bilamiz. Yana shunday misollardan biri ingliz tilidagi muhandislikda ko'p qo'llaniluvchi "plaster" atamasi bizga rus tili orqali "штукатурка"-jipslashtirish bo'lib kirib kelgan. Bu so'zni so'zma-so'z tarjima qilsak "gips" yoki "jips" deb tarjima qilinadi, ammo qurilish tizimiga allaqachon "штукатурка" bo'lib kirib kelgan va keng qo'llanilmoqda.

Qurilishda va me'morchilikda keng qo'llaniladigan atama "monument" so'zi hammamizga tanish, rus tilida bu so'z "памятник" deb tarjima qilinsada, lekin uni o'zbek tilidagi muqobili "yodgorlik" so'zi borligini hamma ham bilmaydi. Bunday atamalarning o'zbek tilida ekvivalenti borligiga qaramasdan, hamon ingliz tilidan kirib kelgan "monument" atamasining qo'llanilishi, sohaga oid adabiyotlarning asosan ingliz va rus tillarida mavjudligidan dalolat beradi. Muhandislikda ko'p qo'llaniladigan "омбур" atamasi rus tilidan kirib kelgan bo'lib texnika va muhandislik sohasida juda keng qo'llaniladi. Afsuski hanuzgacha tilimizda uning muqobil varianti mavjud emas. Ingliz tilida esa bu atama "clamp" so'zi bilan ifodalanadi.

Qurilishda eng ko'p ishlatiladigan birgina "цемент" so'zini ishtirokida qurilish sohasida u bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p terminlarni uchratish mumkin. Aslida bu so'z rus tilidan olingan bo'lib, ingliz tilida ham "cement" deb tarjima qilinadi. O'zbek tilida muqobil varianti yo'q tarjimasida esa sun'iy noorganik kukunsimon bog'lovchi mineral sifatida ifodalanadi. Ammo qurilish sohasida bizga sement deb aytishimiz qulayroq.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, shiddat bilan rivojlanib borayotgan o'zbek tili leksikasidagi arxitektura-qurilish sohasiga oid terminlar shakliy va mazmuniy tomondan yetarli darajada o'rganilmagan. Bu esa terminologiya sohasida mavjud konseptual muammolar bilan bog'liq. XXI asrda adabiy til me'yorlari va xalq kundalik hayotidagi zamonaviy soha va yo'nalishlar leksikasi o'zaro muvofiqlashtirilmas ekan o'zbek tilidagi ilmiy-texnik adabiyotlarni yaratish ham murakkab masalasi sifatida qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Прохорова В.Н. Лексико-семантическое образование русской терминологии. Автореф. дис. докт. фил. наук, Москва, 1983, 30 с.
2. Шукуров Р. У., Омонов К. Х., Таджиходжаева М. Р. Курилиш машиналари фанидан глоссарий (ўқув кўлланма). Тошкент, 2019. 183 б.
3. 3.KuchibboyevMansur.ENGLISH FOR engineering communication in constructions faculty. Fan bulog'i nashriyoti, Samarqand-2021.
4. Timirov A.M.English for engineering constructions.(Conversation pratice) Turon nashr, Samarqand-2021.- B.112.
5. Sh.S.Sharipov-Tilga e'tibor-elga e'tibor. Tilni o'qitish va o'rganishda XXI asr ko'nikmalari.Xalqaro ilmiy- amaliy konferensiya.2020.-B.3.
6. M. A. Ahrorqulova, F. E. Qultayeva. Building materials and products.Uzbek-English-Russian trilingual vocabulary.Samarqand 2014 yil.
7. ОТАЖОНОВА, М. (2017). ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ЭВОЛЮЦИЯ МИФОЛОГИЧЕСКИХ СЮЖЕТОВ В УЗБЕКСКИХ ПРОЗАИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ. Научное обозрение Саяно-Алтая, (2), 85-88.
8. Abdurahmanova, M., & Rayimjonova, M. (2021). KORPUS LINGVISTIKASIDA TARJIMASHUNOSLIK MASALASI. COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS, 1(1).
9. Tursunaliyevna, A. M. (2022). EKOLINGVISTIKA TILSHUNOSLIKNING YANGI SOHASI SIFATIDA. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA, 1(2), 82-84.
10. Abdurahmanova, M., & Malikova, Z. (2022). O 'ZBEK TILIDA SOTSIOLEKT. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA, 1(2), 104-107.
11. Timirov A.M.English for engineering constructions. Turon nashr,2021.- B.8,74..